



Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratlarini smart-texnologiyalar asosida shakllantirish metodikasi

Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna –

Farg'ona davlat universiteti

E-mail: erkinojkipcakova@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2348-6096>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini smart-texnologiyalar asosida shakllantirish metodikasi yoritilgan. Tadqiqot davomida zamonaviy raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilishning samarali usullari, o'qituvchilarning kasbiy o'sishiga ta'siri va o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish imkoniyatlari tahlil qilindi. Muallif tomonidan taklif etilgan metodika tajriba asosida sinovdan o'tkazilib, ijobiy natijalar qayd etildi.

Kalit so'zlar: smart-texnologiyalar, boshlang'ich ta'lim, o'qituvchi, kasbiy mahorat, raqamli pedagogika, innovatsion metodika.

Методика формирования профессионального мастерства учителей начальных классов на основе smart-технологий

Аннотация. В данной статье рассматривается методика формирования профессионального мастерства учителей начальных классов на основе smart-технологий. В ходе исследования проанализированы эффективные способы интеграции современных цифровых технологий в учебный процесс, их влияние на профессиональный рост педагогов, а также повышение интереса учащихся к занятиям. Предложенная автором методика была апробирована на практике и показала положительные результаты.

Ключевые слова: smart-технологии, начальное образование, учитель, профессиональное мастерство, цифровая педагогика, инновационная методика.

Methodology for developing the professional competence of primary school teachers based on smart-technologies

Annotation. *This article explores a methodology for developing the professional competencies of primary school teachers through the use of smart technologies. The study analyzes effective methods of integrating modern digital tools into the educational process, their impact on teachers' professional growth, and the potential to increase students' engagement in learning. The methodology proposed by the author was tested in practice and demonstrated positive results.*

Keywords: *smart technologies, primary education, teacher, professional competence, digital pedagogy, innovative methodology.*

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi o'qituvchilarning professional kompetensiyasiga yangi talablarni qo'yimoqda. Endilikda o'qituvchidan nafaqat an'anaviy pedagogik yondashuvlarni chuqur bilish, balki innovatsion metodlar, zamonaviy texnologiyalar, interaktiv vositalar va raqamli platformalardan foydalanish bo'yicha puxta bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish talab etilmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida ishlovchi pedagoglar uchun muhim ahamiyat kasb etadi, chunki o'quvchining shaxs sifatida shakllanishi, ijtimoiylashuvi va ilmiy dunyoqarashining asoslari aynan shu bosqichda qo'yiladi.

Boshlang'ich ta'lim – bu ta'limning negizidir. Bu bosqichda o'quvchilar o'qish, yozish, mantiqiy fikrlash, muomala qilish, o'zini ifodalash, muammolarni hal qilish kabi asosiy ko'nikmalarni egallaydilar. Shu sababli, bu davrdagi pedagogik ta'sir o'quvchining keyingi o'quv bosqichlaridagi muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi. UNESCO (2022) ta'kidlaganidek, boshlang'ich sinf o'qituvchilari nafaqat bilim beruvchilar, balki o'quvchining psixologik va ijtimoiy rivojiga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratuvchi shaxslar bo'lishi lozim.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarni, xususan, smart-texnologiyalarni dars jarayoniga to'g'ri va metodik asoslangan holda integratsiya qilish, ta'limni sifat jihatidan yangi pog'onaga olib chiqmoqda. Masalan, interaktiv doskalar, raqamli o'quv platformalari (Google Classroom, Microsoft Teams, Zoom), virtual laboratoriyalar va multimedia resurslari orqali boshlang'ich ta'limni jonlantirish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, vizual va eshitish orqali o'zlashtirish darajasini oshirish, shuningdek, darslarni individual tarzda tashkil qilish mumkin bo'ladi (Xamidova. Shu bois, boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy mahorati faqat an'anaviy bilimlar bilan cheklanmasligi kerak. U raqamli asr talablariga javob bera oladigan, o'quvchilarning yosh psixologiyasi va ehtiyojlarini inobatga olgan holda smart-texnologiyalarni zamonaviy didaktika bilan uyg'unlashtira oladigan malakali mutaxassis bo'lishi zarur.

O'quvchilarda o'qishga bo'lgan motivatsiya aynan boshlang'ich ta'limda shakllanadi. Bu jarayonda texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, interaktiv va raqamli vositalar orqali olib borilgan darslar o'quvchilarning e'tiborini kuchaytiradi, bilimni o'zlashtirish darajasini oshiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi (Anderson, 2018; SAMR modeli asosida).

Demak, bugungi ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy mahoratini raqamli texnologiyalar yordamida doimiy rivojlantirish – bu nafaqat zamon talabi, balki

ta'lim sifatini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi yetuk avlodni tarbiyalashning muhim omili hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini smart-texnologiyalar orqali rivojlantirish ta'lim sifatini va samaradorligini oshirishning muhim pedagogik omiliga aylanmoqda. Bu jarayon nafaqat o'qituvchilarning texnologik savodxonligini oshirish, balki ularning pedagogik jarayonga yangi yondashuvlarni kiritish imkonini ham yaratadi. Smart-texnologiyalar, xususan interaktiv doskalar, raqamli platformalar va onlayn resurslar, o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish, darslarni yanada interaktiv va individual yondashuv asosida tashkil etish imkonini beradi.

So'nggi yillarda ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi pedagogik faoliyatga yangi innovatsion yondashuvlarni keltirib chiqardi, bunda o'qituvchilarning kasbiy mahorati va raqamli kompetensiyasi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ular doimiy ravishda rivojlantirilishi talab etiladi (Tursunov, 2019). Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini zamonaviy smart-texnologiyalar yordamida rivojlantirish nafaqat pedagogik amaliyotning rivojlanishiga, balki ta'limning sifat ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qiladigan dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Jahon bankining [1.62.] ta'kidlashicha, zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining raqamli kompetensiyasi uning kasbiy mahoratining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Bu kompetensiya o'qituvchidan nafaqat raqamli vositalardan samarali foydalanishni, balki ularni dars jarayoniga metodik jihatdan to'g'ri integratsiya qilishni ham talab qiladi. Bunday integratsiya o'qituvchining pedagogik mahoratini yangi bosqichga olib chiqib, o'quv jarayonini interaktiv va o'quvchilar uchun qiziqarli qiladi. Raqamli kompetensiyaning rivojlanishi zamonaviy ta'limning sifat ko'rsatkichlarini oshirishda muhim omil hisoblanadi va ta'lim muassasalarida innovatsiyalarni joriy etishda ustuvor ahamiyat kasb etadi.

UNESCO [2.84] hisobotida ta'kidlanishicha, o'qituvchilarning malakasini oshirishda smart-texnologiyalarni tanlash va ulardan samarali foydalanish uchun aniq metodik ko'rsatmalar ishlab chiqish zarur. Bu jarayon o'qituvchilarni yangi texnologiyalar bilan tanishtirishdan tashqari, ularning pedagogik jarayonga to'g'ri moslashtirilishini ham o'z ichiga oladi. Hisobotda, shuningdek, o'qituvchilarning smart-texnologiyalarni qo'llash qobiliyatini muntazam ravishda baholab borish va ularni doimiy ravishda qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish taklif etiladi.

X.X.Xamidova [3.45-49.] o'z tadqiqotida smart-texnologiyalarni ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish o'qituvchilarning dars samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkinligini ta'kidlaydi. Muallif ta'kidicha, interaktiv doskalar, raqamli platformalar (Google Classroom, Edmodo, Zoom, Microsoft Teams kabi) o'qituvchining metodik imkoniyatlarini kengaytiradi, darslarni interaktiv va individuallashtirilgan tarzda tashkil etishga imkon beradi. Bu esa o'quvchilarning bilim olish jarayonidagi faollik va motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi.

A.A.Kadirova [4.32-38.] o'z tadqiqotida esa smart-texnologiyalar o'qituvchilarda raqamli savodxonlik, mustaqil izlanish va innovatsion fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishini qayd etadi. Bunday ko'nikmalar pedagoglarning o'z faoliyatini doimiy ravishda yangilab borishlari va ta'lim jarayonini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishlariga imkon yaratadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlovchi o'qituvchilar uchun smart-texnologiyalardan foydalanish o'ziga xos metodik yondashuvlarni talab qiladi. O'z Tursunov (2019) ta'kidlaganidek, boshlang'ich maktab o'qituvchilari uchun elektron resurslardan foydalanish bo'yicha maxsus metodik qo'llanmalar mavjudligi pedagoglarning kasbiy

Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna

malakasini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu esa ta'lim jarayonining sifatini yaxshilash, pedagoglarni yangi texnologiyalar bilan jihozlash va ularni o'z ishida samarali qo'llash imkonini beradi.

Xalqaro tadqiqotlarda Puentedura tomonidan ishlab chiqilgan SAMR modeli ta'limda raqamli vositalarni qo'llashning pedagogik yondashuvi sifatida keng tarqalgan. Ushbu modelning asosiy g'oyasi shundaki, texnologiyalar dars jarayonida faqat almashtiruvchi (Substitution) yoki qo'shimcha (Augmentation) vosita sifatida emas, balki o'quv faoliyatini modifikatsiya (Modification) va qayta ta'riflash (Redefinition) bosqichlariga olib chiquvchi vosita sifatida ham qo'llanilishi kerak. Bu yondashuv o'qituvchining texnologiyani ijodiy va transformatsion tarzda qo'llashini rag'batlantiradi, natijada ta'lim sifati sezilarli darajada oshadi.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, smart-texnologiyalar o'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda. Ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichida bu texnologiyalar o'quvchilarning qiziqishini oshirish, o'quv jarayonini interaktivlashtirish, pedagoglarning metodik salohiyatini oshirish imkonini yaratadi. Shu bois, ushbu yo'nalishda innovatsion metodik yondashuvlarni ishlab chiqish, pedagoglarning raqamli kompetensiyasini muntazam oshirishga qaratilgan treninglar tashkil etish va amaliy tajribalarni tizimli tahlil qilish dolzarb hisoblanadi. Bundan tashqari, ta'lim muassasalari texnologik infratuzilmasini yanada yaxshilash, o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish va raqamli ta'lim resurslarini kengaytirish muhimdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini shakllantirishda smart-texnologiyalarning imkoniyatlarini aniqlash, ularni ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish usullarini ishlab chiqish va amaliyotda sinovdan o'tkazishdan iborat. Tadqiqot ob'ekti sifatida boshlang'ich ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar tanlandi. Predmet esa – ularning kasbiy mahoratini oshirishda smart-texnologiyalardan foydalanish jarayonidir. Tadqiqotning nazariy asoslarini pedagogik texnologiyalar, raqamli kompetensiyalar va innovatsion metodika bilan bog'liq ilmiy manbalar tashkil etdi. Xususan, V.P.Bespalko, N.F.Talyzina kabi olimlarning pedagogik texnologiyalar haqidagi nazariyalari, shuningdek, UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan raqamli pedagogik kompetensiyalar modeli tahlil qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasini raqamlashtirishga qaratilgan qaror va farmonlari ham tadqiqotning normativ asosini tashkil etdi.

Tadqiqot davomida nazariy va empirik usullar uyg'unlashtirildi. Nazariy tahlil orqali smart-texnologiyalarning ta'limga ta'siri, o'qituvchining kasbiy rivojlanishidagi roli va zamonaviy metodik yondashuvlar o'rganildi. Empirik bosqichda esa so'rovnoma, kuzatuv, eksperiment va test metodlaridan foydalanildi. So'rovnomalar boshlang'ich sinf o'qituvchilari orasida o'tkazilib, ularning smart-texnologiyalarni qanchalik darajada qo'llayotganligi, duch kelayotgan muammolari va ehtiyojlari aniqlab olindi. Kuzatuvlar dars jarayonida olib borilib, o'qituvchining texnologiyadan foydalanish uslubi tahlil qilindi.

Eksperimental ishlar Toshkent shahri va ayrim viloyatlardagi umumta'lim maktablarida olib borildi. Jami 50 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchisi va 200 dan ortiq o'quvchi tadqiqotda ishtirok etdi. Eksperiment davomida o'qituvchilarga smart-texnologiyalar asosida dars rejalari tuzish, interaktiv platformalar (Google Classroom, Kahoot, Zoom va boshqalar) yordamida dars o'tish bo'yicha metodik tavsiyalar berildi. Eksperimentdan oldingi va keyingi holat solishtirilib, o'qituvchilarning kasbiy o'sish ko'rsatkichlari tahlil qilindi.

Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi: tayyorlov bosqichida adabiyotlar tahlil qilindi, metodik materiallar ishlab chiqildi va so'rovnomalar tayyorlandi; asosiy

bosqichda eksperimentlar, kuzatuvlar va baholash ishlari olib borildi; yakuniy bosqichda esa olingan natijalar asosida xulosalar chiqarildi va metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotda qo'llanilgan texnologiyalar sirasiga smart-plattformalar (Google Classroom, ClassDojo, Edmodo), test va baholash tizimlari (Quizizz, Google Forms), multimedia vositalari (interaktiv doskalar, elektron darsliklar) kiradi. Bu texnologiyalar o'qituvchilarning darsga tayyorgarligini yengillashtirdi, o'quvchilar bilan interaktiv aloqani kuchaytirdi hamda ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etishga xizmat qildi.

Ta'kidlash joizki, tadqiqot metodologiyasi nazariy asoslash, amaliy kuzatuv, eksperiment va natijalarni tahlil qilish bosqichlarini o'z ichiga olgan holda, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish uchun kompleks yondashuvni ta'minladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot davomida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining smart-texnologiyalardan foydalanish darajasi, bu texnologiyalar ularning kasbiy mahoratiga qanday ta'sir qilayotgani, shuningdek, o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligi va ishtirokchiligidagi o'zgarishlar tahlil qilindi. Avvalo, 50 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, ularning 64 foizi smart-texnologiyalar haqida umumiy tasavvurga ega bo'lsa-da, faqat 28 foizi ularni dars jarayonida doimiy ravishda qo'llashini bildirdi. Qolgan qismi esa texnik imkoniyatlar, metodik ko'nikmalar va raqamli savodxonlikning yetishmasligi tufayli foydalanmayotganini tan oldi.

Keyingi bosqichda kuzatuv va eksperimentlar asosida darslarda smart-texnologiyalarni qo'llagan o'qituvchilar faoliyati tahlil qilindi. Eksperiment oldidan va undan keyin o'qituvchilarning dars berish sifati, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi va faolligi solishtirildi. Eksperimental guruhdagi o'qituvchilar Google Classroom, Zoom, Quizizz, Wordwall va boshqa interaktiv vositalardan foydalanishni o'rgandilar va o'z amaliyotlarida tatbiq etdilar.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, eksperimentdan oldin o'qituvchilarning kasbiy faolligi, darslarni interaktiv tashkil etish ko'rsatkichlari past bo'lgan bo'lsa, tajriba yakuniga kelib, bu ko'rsatkichlarda sezilarli o'sish kuzatildi. Jumladan:

- o'quvchilarning darsda ishtirok etish faolligi 32% ga oshdi;
- darsni tushunish darajasi va bilimni o'zlashtirish ko'rsatkichlari 27% ga yaxshilandi;
- o'qituvchilarning raqamli texnologiyalar bilan ishlashdagi ishonchi va metodik yondashuvlari sezilarli darajada mustahkamlandi;
- o'quvchilarning mustaqil ishlash va ijodiy fikrlash ko'nikmalari rivojlandi.

Shuningdek, eksperimental guruhdagi o'qituvchilarning aksariyati smart-texnologiyalar darslarni nafaqat samaraliroq, balki o'quvchilar uchun ko'proq qiziqarli va interaktiv qilishini ta'kidlashdi. Interaktiv taqdimotlar, viktorinalar, onlayn testlar va video materiallardan foydalanish darslarni zamonaviylashtirishga xizmat qildi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, smart-texnologiyalarni maqsadli va metodik asoslangan holda qo'llash boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Bu texnologiyalar nafaqat ta'lim jarayonini jonlantiradi, balki o'qituvchining zamonaviy kompetensiyalarini shakllantiradi, o'quvchilarning esa o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi.

№	Ko'rsatkich nomi	Eksperim entgacha (%)	Eksperiment dan so'ng (%)	O'zgarish (+/-)
1	O'qituvchilarning smart- texnologiyalarni muntazam qo'llashi	28%	72%	+44%
2	O'quvchilarning darsdagi faolligi	49%	81%	+32%
3	O'quvchilarning bilimni o'zlashtirish darajasi	58%	85%	+27%
4	O'qituvchilarning texnologiyalardan foydalanishdagi ishonchi	41%	78%	+37%
5	Interaktiv dars usullaridan foydalanish holati	35%	80%	+45%
6	O'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlash darajasi	52%	74%	+22%

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirishda smart-texnologiyalarni samarali qo'llash muhim ahamiyatga ega. Smart-texnologiyalar darslarni interaktiv, qiziqarli va samarali o'tkazishga imkon yaratadi, bu esa o'quvchilarning faolligi va bilimni chuqurroq o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Eksperiment davomida o'qituvchilarning texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ko'nikmalari oshdi, ularning o'z ishiga bo'lgan ishonchi kuchaydi va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish imkoniyatlari kengaydi.

Shuningdek, o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodkorlik va innovatsion ko'nikmalari ham rivojlandi, bu esa ta'lim sifatining yaxshilanishiga olib keldi. Tadqiqotdan kelib chiqqan holda, pedagoglarning raqamli savodxonligi va smart-texnologiyalarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish muhimligi aniqlanib, ularni o'qitish tizimiga samarali integratsiya qilish uchun aniq metodik asoslar ishlab chiqilishi lozimligi ta'kidlandi.

1. o'qituvchilar uchun muntazam treninglar tashkil etish: boshlang'ich sinf o'qituvchilarining smart-texnologiyalarni amaliy qo'llash ko'nikmalarini oshirish maqsadida maxsus kurslar va seminarlar o'tkazilishi zarur.

2. metodik qo'llanmalar yaratish: smart-texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha amaliy va aniq ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan metodik tavsiyalar ishlab chiqilishi kerak.

3. ta'lim muassasalarida texnologik infratuzilmani yaxshilash: maktablarda interaktiv doskalar, yuqori sifatli internet va zamonaviy kompyuter texnikalari bilan ta'minlash ishlarini kuchaytirish zarur.

4. o'quvchilar uchun interaktiv va qiziqarli ta'lim resurslarini yaratish: o'quvchilarni o'rganishga yanada rag'batlantirish uchun o'quv dasturlariga mos interaktiv multimedia materiallar ishlab chiqilishi lozim.

5. ta'lim sifatini muntazam monitoring qilish: smart-texnologiyalarni joriy etish samaradorligini baholash va takomillashtirish uchun tizimli monitoring va baholash mexanizmlari yo'lga qo'yilishi kerak.

6. raqamli savodxonlikni rivojlantirish: o'qituvchilar va o'quvchilarning raqamli savodxonligini oshirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqilishi va keng tatbiq etilishi muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Bank. Reimagining Human Connections: Technology Innovation in Education at the World Bank. – Washington: World Bank Group, 2021. – 62 p.
2. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. Version 3. – Paris: UNESCO, 84 p, –2022.
3. Хамидова Х.Х. Использование SMART-технологий в образовательном процессе // Педагогика ва психология. №4. 45-49 b, –2020.
4. А.А.Қодирова Smart-технологиялар асосида ўқитувчиларнинг рақамли компетенцияларини шакллантириш // Таълимда инновациялар журналы. №2(15). 32-38 b, –2022.
5. Турсунов Ў. Бошланғич синф ўқитувчиларининг электрон таълим ресурсларидан фойдаланиш кўникмаларини ривожлантириш // Ўқитувчи журналы. №1. 27-30 b, –2019.
6. Puente R.R. Transformation, Technology, and Education: SAMR Model [Electronic resource]. – 2014.
7. N.U.Babaraximova Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish metodikasi. Toshkent: TDPU Ilmiy axborotlari, №2, 45-50-betlar, –2023.
8. D.Yuldasheva, G.Cho'lliyeva Zamonaviy pedagogik texnologiyalar (maktab ona tili ta'limi misolida). Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, –2022.